Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319878

"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"

BANK KARTALARI STATISTIKASINI TAHLIL QILISH ASOSIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO'RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

TO'PATILLAYEVA GULNOZA SIROJIDDIN QIZI
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
08.00.07- "Moliya, pul muomalasi va kredit" tayanch doktoranti
+998941719440
gulnozatupatillayeva@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishda tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini takomillashtirishning raqamli yo'nalishlari statistik va institutsional tahlil asosida o'rganildi. 2025-yil 1-iyun holatiga ko'ra mamlakatda 63,8 million dona, 1-noyabr holatiga esa 65,04 million dona bank kartasi muomalada ekani qayd etilgan. Bank kartalari sonining ortishi, to'lov terminallari tarmog'ining kengayishi hamda mobil bank xizmatlarining rivojlanishi iqtisodiy operatsiyalarni rasmiy sektorga olib chiqishda muhim omil sifatida baholandi. Tadqiqot davomida tijorat banklari xizmatlarini raqamlashtirish, masofaviy identifikatsiya tizimlari, tranzaksiyalar monitoringi va normativ-huquqiy mexanizmlar yashirin iqtisodiyotni qisqartirish vositasi sifatida tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bank xizmatlarini modernizatsiya qilish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning muhim institutsional yo'nalishi hisoblanadi.

Abstract

This scientific article examines the digital directions for improving banking services provided by commercial banks to the population in reducing the scale of the shadow economy in Uzbekistan, based on statistical and institutional analysis. As of June 1, 2025, the number of bank cards in circulation amounted to 63.8 million, while by November 1 it reached 65.04 million. The growth in the number of bank cards, the expansion of the payment terminal network, and the development of mobile banking services are assessed as significant factors in integrating economic transactions into the formal sector. The study analyzes the digitalization of banking services, remote identification systems, transaction monitoring mechanisms, and regulatory frameworks as effective tools for reducing the shadow economy. The results demonstrate that the modernization of banking services represents an important institutional direction for ensuring economic security.

Аннотация

Published: 05.06.2026

Cite this article: To'patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi (2026). Bank kartalari statistikasini tahlil qilish asosida tijorat banklari tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan bank xizmatlarini takomillashtirish. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319878

© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

“MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR”

В данной научной статье на основе статистического и институционального анализа рассматриваются цифровые направления совершенствования банковских услуг, предоставляемых коммерческими банками населению, в целях сокращения масштабов теневой экономики в Узбекистане. По состоянию на 1 июня 2025 года количество банковских карт в обращении составило 63,8 млн единиц, а к 1 ноябрю — 65,04 млн. Рост числа банковских карт, расширение сети платежных терминалов и развитие мобильных банковских услуг оцениваются как важные факторы перевода экономических операций в официальный сектор. В ходе исследования цифровизация банковских услуг, системы дистанционной идентификации, мониторинг транзакций и нормативно-правовые механизмы рассматриваются как инструменты сокращения теневой экономики. Полученные результаты показывают, что модернизация банковских услуг является важным институциональным направлением обеспечения экономической безопасности.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, bank xizmatlari, yashirin iqtisodiyot, raqamli to‘lovlar, iqtisodiy xavfsizlik, moliyaviy inklyuziya, bank kartalari.

Keywords: Commercial banks, banking services, shadow economy, digital payments, economic security, financial inclusion, bank cards.

Ключевые слова: Коммерческие банки, банковские услуги, теневая экономика, цифровые платежи, экономическая безопасность, финансовая инклюзия, банковские карты.

Kirish

Yashirin iqtisodiyot har qanday davlat iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Rasmiy statistikada aks etmaydigan daromadlar, soliqqa tortilmaydigan operatsiyalar va naqd pul aylanmasining yuqori ulushi davlat byudjeti barqarorligiga, soliq siyosati samaradorligiga va makroiqtisodiy muvozanatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois zamonaviy iqtisodiy siyosatda yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot va naqdsiz hisob-kitoblar tizimini rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Markaziy banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil 1-noyabr holatiga bank kartalari soni 65,04 million donani tashkil etgan. 47Ushbu ko‘rsatkich aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

47 Markaziy bank O‘zbekiston. (2025). Bank kartalari va to‘lov infratuzilmasi statistikasi (1-noyabr holati).

Tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati va ko‘lami nafaqat bank tizimining raqobatbardoshligini belgilaydi, balki iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, mobil bank xizmatlari, onlayn to‘lovlar, QR to‘lov tizimlari va masofaviy identifikatsiya texnologiyalari naqd pul aylanmasini qisqartirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – tijorat banklari tomonidan aholiga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlarini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirish mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda tijorat banklari xizmatlarining raqamlashtirilishi va yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishga ta’siri statistik va institutsional tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqot quyidagi ilmiy metodlar va yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

1. Statistik tahlil metodlari – O‘zbekiston Markaziy banki va tijorat banklarining 2025-yil iyun va noyabr holatiga oid bank kartalari, to‘lov terminallari, bankomatlar va infokiosklar bo‘yicha ma’lumotlar tahlil qilindi. Ushbu ma’lumotlar asosida bank kartalari sonining dinamikasi, ulushlarni aniqlash va xizmatlar taqsimotini o‘rganish imkoniyati yaratildi. Masalan, bank ulushi quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$\text{Ulush (\%)} = (\text{Umumiy kartalar soni} / \text{Bank kartalari soni}) \times 100(\%)$$

Bu usul orqali davlat va tijorat banklari segmentidagi ulushlarni aniqlash va bozor strukturasini tahlil qilish amalga oshirildi.

2. Solishtirma tahlil – 2025-yil 1-iyun va 1-noyabr holatlaridagi bank kartalari soni, terminallar va boshqa infratuzilma ko‘rsatkichlari solishtirildi. Bu metod yordamida tijorat banklari xizmatlarining o‘sish sur’atlari va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga ta’siri aniqlandi.

3. Institutsional tahlil – Bank xizmatlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy mexanizmlar, jumladan:

- bitta shaxsga to‘g‘ri keladigan bank kartalari sonini cheklash;
- virtual va cobrending kartalarni monitoring qilish;
- tranzaksiyalarni shaffoflashtirish mexanizmlari;
- mobil va onlayn bank xizmatlarini joriy etish;

tahlil qilindi. Ushbu yondashuv tijorat banklarining yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional samaradorligini baholash imkonini berdi.

4. Korrelyatsion va dinamik tahlil – Bank kartalari soni, terminallar va tushum ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Bu usul yordamida tijorat banklari xizmatlarining raqamlashtirilishi va iqtisodiy operatsiyalarni rasmiy sektorga chiqarish jarayonidagi samaradorlik aniqlangan.

5. Ekspert va komparativ baholash – Moliyaviy ekspertlarning tajribasi va xalqaro moliya institutlari (World Bank, OECD) tavsiyalari asosida O‘zbekiston bank tizimidagi raqamli xizmatlarni takomillashtirish imkoniyatlari baholandi. Shuningdek, tadqiqotda quyidagi integratsion metodologik printsiplar qo‘llanildi: sistemali yondashuv, indikatorlar monitoringi, ekonometrik prognozlash, va normativ-huquqiy solishtirma tahlil. Ushbu metodlar birgalikda tijorat banklarining xizmatlarini modernizatsiya qilish, raqamli to‘lov tizimlarini kengaytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish mexanizmlarini tizimli o‘rganish imkonini berdi.

Natijalar

Tadqiqot davomida O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan aholiga ko‘rsatilayotgan bank xizmatlari va bank kartalari soni, shuningdek, to‘lov infratuzilmasi ko‘rsatkichlari tizimli tarzda o‘rganildi. 2025-yil 1-iyun holatiga mamlakatda muomalada 63,8 mln dona bank kartasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1-noyabr holatiga bu ko‘rsatkich 65,04 mln donaga yetdi48. Ushbu ortish, asosan, davlat banklari (Xalq banki, Agrobank) va yirik tijorat banklarida kuzatildi.Bank kartalari soni bo‘yicha yetakchi banklar ro‘yxati va ularning umumiy bozor ulushi quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval49.

2025-yil 1-iyun holatiga O‘zbekistondagi bank kartalari taqsimoti (mln dona va ulush %)

Bank nomi	Kartalar soni (mln)	Ulushi (%)	Izoh
Xalq banki	9,98	15,6	Davlat banki, ijtimoiy to‘lovlar uchun asosiy platforma
Agrobank	6,5	10,2	Davlat banki, barcha to‘lov tizimlaridagi kartalar
Ipoteka bank	4,98	7,8	OTP Groupga sotilgan tijorat banki
TBC Bank	4,89	7,6	Raqamli xizmatlar tez rivojlanmoqda
Octobank	4,69	7,3	Kobrending kartalar bilan ishlash to‘xtagan
O‘zmilliybank (NBU)	4,15	6,5	Katta korporativ mijozlar bilan

48 Pinkod.uz (2025, 12-noyabr). O‘zbekistonda bank kartalari soni 65 milliondan oshdi.

49 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 1-iyun holatiga bank kartalari bo‘yicha statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan

Bank nomi	Kartalar soni (mln)	Ulushi (%)	Izoh
			ishlaydi
Hamkorbank	3,4	5,3	Humo, Uzcard va Visa kartalarini bepul chiqaradi
Ipak yo‘li banki	3,3	5,2	Bepul bank kartalari, yoshlar va ayollar uchun maxsus kartalar
Anorbank	3,14	4,9	Raqamli xizmatlarga urg‘u, onlayn yetkazib berish
O‘zsanoatqurilishbank (SQB)	2,8	4,4	Barqaror davlat banki, barcha asosiy to‘lov tizimlarida kartalar
Boshqa banklar	14,96	23,5	Kichik va o‘rta tijorat banklari

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, davlat banklari va yirik tijorat banklari bozorning qariyb 40 foizini egallaydi. Bu esa ularning yashirin iqtisodiyotga ta’sirini sezilarli darajada oshiradi.

Bank kartalari sonining dinamikasi. 2025-yil 1-iyun va 1-noyabr holatidagi ma’lumotlar solishtirilganda, bank kartalari sonining o‘sish sur’atlari turlicha bo‘lgan:

2-jadval50.

2025-yil iyun–noyabr oylari bo‘yicha bank kartalari sonining o‘zgarishi (mln dona)

Bank nomi	1-iyun (mln)	1-noyabr (mln)	O‘zgarish (mln)	Izoh
Xalq banki	9,98	9,7	-0,28	Ijtimoiy to‘lovlar jarayonidagi optimizatsiya
Agrobank	6,5	6,6	+0,1	Davlat va onlayn xizmatlar kengayishi
Ipoteka bank	4,98	5,2	+0,22	Tijorat banki sifatida o‘sish sur’atlari
Milliy bank	4,15	4,3	+0,15	Korporativ mijozlar sonining oshishi
TBC Bank	4,89	4,2	-0,69	Raqamli platformalarga o‘tish jarayoni

50 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil 1-iyun va 1-noyabr holatiga rasmiy statistik ma’lumotlari asosida muallif tomonidan solishtirma tahlil natijalari

Bank nomi	1-iyun (mln)	1-noyabr (mln)	O‘zgarish (mln)	Izoh
Uzum Bank	3,7	3,7	0	Stabil o‘sish
Hamkorbank	3,4	3,6	+0,2	Humo va Visa xizmatlarining kengayishi
Boshqa banklar	24,3	26,34	+2,04	Kichik va o‘rta tijorat banklarining faoliyati

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, bank kartalari sonining o‘sishi ayniqsa, Agrobank, Ipoteka bank va Hamkorbankda yuqori. Xalq bankida esa ijtimoiy to‘lovlarni optimallashtirish natijasida biroz kamayish kuzatilgan.

To‘lov terminallari va bankomatlar

Tijorat banklari xizmatlarining yashirin iqtisodiyotga ta’sirini aniqlashda, to‘lov terminallari va bankomatlar tarmog‘i asosiy ko‘rsatkich sifatida olingan.

3-jadval51.

To‘lov infratuzilmasi (2025-yil)

Ko‘rsatkich	Miqdor	Yetakchi bank
To‘lov terminallari soni	51 346	Hamkorbank
Terminallar orqali tushum	359,9 trln so‘m	Aloqabank
Bankomat va infokiosklar	22 708	To‘lov tashkilotlari
Bir kishiga to‘g‘ri keladigan karta	1,5	O‘rtacha mamlakat bo‘yicha

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘lov terminallari va bankomatlar tarmog‘ining kengayishi nafaqat xizmatlar ko‘lamini oshiradi, balki iqtisodiy operatsiyalarni rasmiylashtirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkoniyatini yaratadi.

Davlat banklari va yirik tijorat banklari bozorning asosiy qismini egallab, iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda strategik rol o‘ynaydi.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi, shuningdek, kartalar sonini va tranzaksiyalarni monitoring qilish mexanizmlari yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Muhokama

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston tijorat banklari xizmatlarining raqamlashtirilishi yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishda muhim vosita hisoblanadi. Bank kartalari sonining 2025-yil iyunidan noyabrigacha ortishi, ayniqsa, Agrobank, Ipoteka bank va Hamkorbankdagi o‘sish bilan bog‘liq bo‘lib,

51 O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda tijorat banklarining yillik hisobotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan

bu banklarning xizmatlar tarmog‘ini kengaytirgani va mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratgani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Xalq bankidagi biroz kamayish ijtimoiy to‘lovlar tizimining optimallashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu davlat bankining resurslarni samarali boshqarish strategiyasini aks ettiradi.

To‘lov terminallari va bankomatlar tarmog‘ining kengayishi ham iqtisodiy operatsiyalarni rasmiylashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Hamkorbank va Aloqabank terminallar orqali tushum hajmini oshirganligi mijozlarning pul oqimini raqamli kanallar orqali amalga oshirishini ta’minlagan. Bu esa nafaqat yashirin iqtisodiyotni kamaytiradi, balki iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali tranzaksiyalar monitoringi va firibgarlikning oldini olish imkoniyati ortadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari tomonidan taklif etilayotgan mobil va onlayn bank xizmatlari, raqamli identifikatsiya tizimlari va virtual kartalar aholi tomonidan keng qabul qilinmoqda. Bu banklar xizmatlarini modernizatsiya qilayotganini va iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektor tomon yo‘naltirayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bitta shaxsga bir bankdagi va umuman barcha banklardagi kartalar sonini cheklash tartibi moliyaviy inklyuziya bilan birga xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli bank xizmatlari yoshlarga, ayollarga va kichik tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning rasmiy sektorini kengaytiradi va yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartiradi. Shu bilan birga, davlat va tijorat banklari o‘rtasida raqamlashtirish bo‘yicha hamkorlik va tajriba almashish yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Muhokama shuni ko‘rsatadiki, bank xizmatlarini raqamlashtirish va modernizatsiya qilish faqat texnologik jarayon emas, balki iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, moliyaviy inklyuziya va yashirin iqtisodiyot ko‘lamini kamaytirishning institutsional strategiyasi sifatida ko‘rilishi lozim. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining innovatsion xizmatlari, elektron to‘lov tizimlari va monitoring mexanizmlari iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va moliyaviy tizimning shaffofligini oshirishda strategik ahamiyatga ega.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda bank kartalari sonining 65 million donadan oshishi moliyaviy inklyuziyaning sezilarli darajada kengayganini bildiradi. Tijorat banklari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning raqamlashtirilishi iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Naqdsiz to‘lovlar infratuzilmasining rivojlanishi, mobil bank xizmatlarining kengayishi va normativ cheklovlarning joriy etilishi yashirin iqtisodiyot ko‘lamini qisqartirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tijorat banklari xizmatlarini yanada takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va moliyaviy monitoring tizimlarini kuchaytirish iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Markaziy bank O‘zbekiston. (2025). O‘zbekistonda bank kartalari va to‘lov infratuzilmasi bo‘yicha statistika (1-iyun, 1-noyabr holati). Tashkent: Markaziy bank.
2. Pinkod.uz. (2025, November 12). O‘zbekistonda bank kartalari soni 65 milliondan oshdi. Retrieved from https://www.pinkod.uz
3. Gazeta.uz. (2025, February 20). Endilikda bank kartalarini 14 yoshdan mustaqil olishga ruxsat beriladi. Retrieved from https://www.gazeta.uz
4. Karimov, B., & Tursunov, A. (2021). Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va moliyaviy inklyuziya O‘zbekistonda. Tashkent: TDIU Press.
5. Abdullayev, S. (2020). Yashirin iqtisodiyot va raqamli to‘lov tizimlari: O‘zbekiston tajribasi. Tashkent: Economics Today Journal, 12(3), 45–60.
6. World Bank. (2023). Digital financial services and financial inclusion in developing economies. Washington, DC: World Bank Publications.
7. OECD. (2022). Digital payments and economic security in emerging markets. Paris: OECD Publishing.
8. IMF. (2022). Reducing shadow economy risks through banking sector modernization. Washington, DC: International Monetary Fund.
9. World Economic Forum. (2021). Digital transformation in banking: Lessons for Central Asia. Geneva: WEF Publications.
10. Xalq banki O‘zbekiston. (2025). Bank xizmatlarini modernizatsiya qilish va mijozlarga ko‘rsatiladigan raqamli xizmatlar bo‘yicha yillik hisobot. Tashkent: Xalq banki.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —